



**VOYAGA YETMAGANLAR TOMONIDAN SODIR ETILADIGAN JINOYAT VA
HUQUQBUZARLIKLARNING SABABLARI**

Ahmadov Bekzodjon Obidjon o'g'li

*O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi akademiyasi Tashkiliy-shtab faoliyati ta'lim
yo'nalishi 2-bosqich kursanti*

Ilmiy rahbar:

X.D. Sarabekov

“Tashkiliy-shtab faoliyati” kafedrasida dotsenti, yu.f.b.f.d.(PhD)

ANNOTATSIYA

Maqolada yoshlar tomonidan jinoyatlarning asosiy sabablari va shart-sharoitlari, shuningdek, ular orasida jinoyat javobgarligiga olib kelishi mumkin bo'lgan “xavfli” qiziqishlar tahlil qilinadi. Bundan tashqari, o'smirlikdagi huquqbuzarlarning asosiy turlari ham yoritiladi.

Kalit so'zlar: voyaga yetmaganlar, javobgarlik, yoshlar, jinoyatchilik, sabablar.

CAUSES OF CRIMES AND OFFENSES COMMITTED BY MINORS

Bekzodjon Obidjon o'g'li Ahmadov

2nd-year Cadet, Organizational and Staff Activities Program

Academy of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan

Scientific Supervisor:

X.D. Sarabekov

Associate Professor, Department of Organizational and Staff Activities, PhD in Law

ABSTRACT

This article analyzes the main causes and conditions of crimes committed by youth, as well as “risky” interests that may lead them to criminal liability. In addition, the main types of juvenile offenders are discussed.

Keywords: minors, liability, youth, crime, causes

**ПРИЧИНЫ ПРЕСТУПЛЕНИЙ И ПРАВОНАРУШЕНИЙ, СОВЕРШАЕМЫХ
НЕСОВЕРШЕННОЛЕТНИМИ**

Ахмадов Бекзоджон Обиджонович

Курсант 2-го курса, направление «Организационно-штатная деятельность»

Академия Министерства внутренних дел Республики Узбекистан

Научный руководитель:

X.D. Sarabekov Доцент кафедры «Организационно-штатная деятельность», кандидат
юридических наук (PhD)

АННОТАЦИЯ

В статье анализируются основные причины и условия, способствующие совершению преступлений молодыми людьми, а также «рисковые» интересы, которые могут привести их к уголовной ответственности. Кроме того, рассматриваются основные виды правонарушений, совершаемых подростками.

Ключевые слова: несовершеннолетние, ответственность, молодежь, преступность, причины

Hozirgi vaqtda yosh avlodning farovonligi nafaqat jamiyat uchun, balki Yangi O'zbekiston uchun ham katta ahamiyatga ega. Zamonaviy jamiyatda yoshlar duch keladigan ko'plab ijtimoiy muammolar mavjud. Hayot darajasining pasayishi, jamiyatdagi tabaqalashuv, ishga joylashish tizimining kamayishi sababli yoshlar jinoyat muhitining ta'siriga tushib qolmoqda. Shuningdek, ko'plab yoshlar jinoyatchilik guruhlarining salbiy ta'siriga tushib qolishining sababi ota-onalarning yetarli va munosib tarbiya bermasligi, jamiyatda qabul qilingan axloqiy normalarni belgilamasligi



hamda ularning beparvoligi hisoblanadi. Ota-onalar farzandlariga ularning yoshida muhim bo'lgan va kelajakdagi hayotlari uchun ahamiyatli bo'lgan qadriyatlarni o'rgatmasliklari sababli, afsuski, yoshlar orasida jinoyatchilik doimiy ravishda ortib bormoqda.

Jinoyatlarni sodir etish sababi deb, jinoyat sodir bo'lishiga ijtimoiy-psixologik asos bo'lgan holat tushuniladi. Ya'ni, bu ichki turtki bo'lib, jinoyat qilishga undaydi; jinoyat huquqida esa bu jinoyatning subyektiv tomoni hisoblanadi.

XIX asrning 30-yillarida mashhur belgiya olimi, astronom va matematik Adolf Jak Kettle jinoyatchilikni ijtimoiy yovuzlik sifatida baholagan: *“Jamiyat o'z ichida yuz berishi mumkin bo'lgan barcha jinoyatlarning urug'ini saqlaydi”*. Italiya tibbiyot xodimi, qamoqxon shifokori Ch. Lombrozo esa tug'ma jinoyatchilik va jinoyatchilar tiplari haqidagi nazariyani ilgari surgan. Uning xulosalari ilm-fan nuqtai nazaridan uzoq bo'lib, nihoyatda reaksiyon choralarini taklif qilgan: *“o'lchash, tortish va osish”*, chunki uningcha, *“tug'ma”* jinoyatchilarga nisbatan hech qanday davolovchi chora yo'q[1:1].

Avstriyalik shifokor-psixiatr Z. Freyd asos solgan psixoanalitik maktab keng tarqaldi, u jinoyatchilikni shaxs rivojlanishidagi nuqsonlar natijasi deb qaraydi. Bu nazariyaga ko'ra, inson biologik jihatdan ijtimoiy me'yorlarga zid bo'lgan instinktlar (tajovuzkorlik, jinsiylik, qo'rquv) va axloqiy qoidalar o'rtasidagi doimiy ichki kurashga mahkum. Bola ulg'ayishi jarayonida bu instinktlarni boshqarishni o'rganadi. Agar bu jarayon oiladagi yomon munosabatlar yoki boshqa sabablarga ko'ra muvaffaqiyatsiz kechsa, shaxs noto'g'ri shakllanadi va nogiron ruhiyatli bo'lib yetishadi.

Keyinchalik akademik N.P. Dubinin shunday degan: *“Zamonaviy inson uchun ijtimoiy dastur – bu tashqi muhit emas, balki shaxs shakllanishining ichki shartidir. Inson ijtimoiy dasturni tug'ilganda tayyor holatda olmaydi, u jamiyat amaliyoti orqali individual rivojlanish jarayonida unda shakllanadi”*. U yana *“Inson ruhiy hayotiga xos genlar mavjud emas, inson ruhiyati xususiyatlari jamiyat amaliyoti orqali shakllanadi”* – deb ta'kidlaydi[2].

Yoshlikning psixologik xususiyatlari tufayli yoshlar jamiyat va uning qoidalariga beparvo munosabatda bo'lib, o'zlarini unga qarshi qo'yishga intilishadi. Yoshlarning maksimalizmi jinoyat sodir etilishining asosiy sabablaridan biridir. Shuningdek, ular mumkin bo'lgan oqibatlarga befarq va mas'uliyatsizlik qiladilar[3:331]. Jinoyat sodir etish motivlarini o'rganishga qaratilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ayrim hollarda voyaga yetmaganlar tomonidan jinoyat sodir etilishiga beparvolik, o'zini ko'rsatishga urinish, xavfli harakat orqali ajralib turishga bo'lgan ehtiyoj sabab bo'lgan. Ko'p hollarda o'smirlar o'z harakatlari uchun javobgarlikdan qochishlariga ishonadilar yoki ularning qilgan harakatlari uchun umuman jazo belgilangan emas deb o'ylaydilar. Past darajadagi shahvoniy va pastkash zavqlarga intilish ham yoshlardagi jinoyatchilikning ortishiga sabab bo'ladi.

Qonun normalarini bilmaslik yoki davlat qonunchiligiga befarq munosabat jinoyat sodir etilishining ko'p uchraydigan sabablaridan biridir ya'ni huquqbuzarlik sodir etilishida, odatda, huquqiy ong yetishmaydi. O'smirlar aniq huquqiy tushunchalarga ega bo'lmaganliklari sababli, o'z harakatlarini qonun talablari bilan to'g'ri taqqoslay olmaydilar. Asosiy muammo nafaqat yoshlarda, balki butun aholida ham shundaki, ular qonunlarni o'rganmaydi yoki o'rgangan bo'lsalar ham yuzaki tarzda o'rganadilar. Qonunga xilof harakatlar sodir etishda ular javobgarlikka tortilmaydi, degan ishonchda bo'ladi. Shundan kelib chiqib, huquqiy nihilizm yoki infantilizm yuzaga keladi, ularni hech narsa oqlamaydi.

Voyaga yetmaganlar shuningdek, o'zlarini o'z qarashlarida va tengdoshlarining nazarida tasdiqlashga intilishadi. Ular jinoyat sodir etish orqali kattaroq ko'rinishga ega bo'lishlarini hisoblashadi. Shuningdek, ular jinoyatchilik xulq-atvorini romantizatsiya qiladilar. Moliyaviy



mustaqillikka intilish iqtisodiy faoliyat sohasida jinoyatlar sodir etilishiga turtki bo'ladi. Moddiy ehtiyojlarni qondirish kichik o'g'rilik, talonchilik va o'g'riliklarni sodir etishga olib keladi.

Aggressivlik va haddan tashqari shafqatsizlik o'smirlik davridagi yoshlar orasidagi jinoyatchilik sabablaridan biri hisoblanadi. Bu xulq-atvor shaxsning ichki sifatleri, atrof-muhit ta'siri va jamiyatning umumiy holatiga bog'liq.

Yuqoridagilarning isboti sifatida 2023-yilda O'zbekistonda 3599 nafar voyaga yetmaganlar, ya'ni 13 – 17 yoshli bolalar jinoyat sodir etgani uchun ro'yxatga olinganligini ko'rishimiz mumkin. Bu o'tgan yilga nisbatan 15,6 foizga, ya'ni 3112 ta va 2021-yilga nisbatan 40 foizga, ya'ni 2595 taga ko'pdir. Bu bo'yicha Prezident huzuridagi Statistika agentligi hisobot e'lon qildi.

2020-yilda 1276 ta, ya'ni 2023-yilga nisbatan 2,8 barobar kam, 2019-yilda esa 818 ta jinoyat qayd etilgan. Shunday qilib, besh yil ichida jinoyat sodir etgan voyaga yetmaganlar soni 4,4 barobarga oshganini ko'rishimiz mumkin.

2023-yil jinoyat sodir etgan 3599 nafar voyaga yetmaganlarning (bu jinoyat sodir etgan 88913 nafarning 4 foizi) 82,6 foizi jinoiy javobgarlikka tortilgan.

Ulardan 744 nafari 13 – 15 yosh, 2855 nafari 16 – 17 yoshlidir. Qizlarning ulushi 8,7% – 314 kishini tashkil etdi.

Jinoyat sodir etgan voyaga yetmaganlar eng ko'p – 700 nafar Farg'ona viloyatida qayd etilgan. Keyingi o'rinlarda Toshkent – 545, Namangan viloyati – 451 va Toshkent viloyati – 345 kishi. Eng past ko'rsatkichlar Jizzaxda – 54, Navoiyda – 62 va Xorazm viloyatlarida – 66 kishi.

Jinoyat turlari bo'yicha voyaga yetmaganlarning aksariyati yoki 1602 nafari o'g'rilik bu 2022-yilda 1581 nafarni tashkil qilgan, 453 nafari bezorilik(2022-yilda 284 nafarni tashkil qilib, 60 foizga oshgan), 135 nafari firibgarlik(2022-yilda 134 nafarni tashkil qilgan), 181 nafari talonchilik va bosqinchilik(2022-yilda 162 nafarni tashkil qilib, 11 foizga oshgan sodir etgan), 104 nafari qasddan badanga og'ir shikast yetkazish(2022-yilda 74 nafarni tashkil qilib, 40 foizga oshgan), 54 nafari – nomusga tegish va nomusga tegishga urinish(2022-yilda 46 nafarni tashkil qilib, 20 foizga oshgan), 27 kishi – tovlamachilik(2022-yilda 16 nafarni tashkil qilib, 70 foizga oshgan), 12 nafari esa qasddan odam o'ldirish va odam o'ldirishga urinish(2022-yilda 10 nafarni tashkil qilib, 20 foizga oshgan) jinoyatini sodir etgan.

Shuningdek, voyaga yetmaganlarning 57 nafari giyohvandlik vositalarini ishlab chiqarish yoki sotish, 121 nafari o'limga olib kelmaydigan yo'l-transport hodisalari, 4 nafari qalbaki pul yoki qimmatli qog'ozlarni tayyorlash yoki sotish kabi jinoyat qilgan.

Jinoyat sodir etilgan vaqtda ularning 2730 nafari talabalar, 510 nafari ishchilar, 148 nafari ishlamaydigan yoki o'qimaydigan, 8 nafari xizmatchilar, 190 nafari boshqa toifalarga mansub bolalar bo'lgan.

Yuqoridagi raqamlarga e'tibor qaratgan holda albatta, o'smirlarning jinoyat sodir etishining obyektiv sabablarini yoki sharoitlarini ham ko'rib chiqish zarur. Jinoyatchilik sharoitlari – bu jinoyat qilish niyatining paydo bo'lishiga yordam beruvchi voqea va hodisalardir. Avvalo, bu ijtimoiy-iqtisodiy omillar, ya'ni oilaning kam ta'minlanganligi hisoblanadi. Shu sababli, har bir o'smirning moddiy va ma'naviy ehtiyojlari qondirilmaydi, holbuki ularning tengdoshlarida boshqa holat yuzaga keladi. Bu esa o'z navbatida agressiya, g'azab va umidsizlikni yuzaga keltiradi. Bu esa manfaatsiz jinoyatlar sodir etilishiga turtki bo'ladi [4:101].

Jinoyatchilikni keltirib chiqaruvchi yana bir omil – bu ideologik qarashlar va tarbiya. Ba'zi oilalarda tarbiya zo'ravonlik va qattiq munosabatda bo'lish orqali amalga oshiriladi, shuningdek, notinch oilalarda ota-onalarning axloqsiz hayoti bolalarning psixikasiga katta ta'sir ko'rsatadi. Bunday xulq-atvor kelajakda norma sifatida qabul qilinadi va bunday oilalarning farzandlari barcha muammolarni zo'ravonlik orqali hal qilishga intiladi. Shu bois, jinoyat ishlari bo'yicha sudda voyaga



yetmaganlarga nisbatan guvohlik berishda, yoshlarga katta bo'lgan shaxslarning ta'siri, shuningdek, ularning yashash va tarbiya sharoitlari muhim ahamiyatga ega.

Yoshlar orasida jinoyatchilikning o'sishiga erkin vaqtning ko'pligi ham ta'sir qiladi. Bu sharoitda ijtimoiy infratuzilmaning mavjudligi muhim rol o'ynaydi, u yoshlarni jamiyatga moslashishi uchun zarurdir. Bu holat to'g'ridan-to'g'ri davlat va mintaqada olib borilayotgan siyosatga bog'liq. Yoshlar dam olish joylari qanchalik rivojlangan bo'lsa, jinoyatlar soni kamayadi. Shuningdek, dastlab yoshlarning ta'limga bo'lgan munosabatini nazorat qilish kerak, bu ota-onalar va ta'lim muassasalari zimmasidagi vazifa hisoblanadi. Agar o'qishga beparvo munosabat erta bosqichlarda aniqlansa, menimcha, bu yoshlarning jinoyat sodir etilishining oldini olishga yordam beradi.

Albatta, yoshlar orasida jinoyatchilikning o'sishiga giyohvandlik va alkogollik kabi omillar ham ta'sir qilishi mumkin. Ushbu hodisalar jinoyat sodir etilishining shart-sharoitlari bo'libgina qolmay, uning sabablaridan biri hisoblanadi. O'smirlar qisqa muddatli lazzat olishni xohlashlari ularni huquqiy bo'lmagan harakatlarga olib boradi. Jinoyatchilikka yordamchi omillar sifatida ko'chada yurish ham mavjud bo'lib, ular ota-onalarning yoshlarni yetarli nazorat qilmasligi oqibatida yuzaga keladi.

Odatda o'smirlar tomonidan amalga oshiriladigan jinoyatlar guruh bo'lib sodir etiladi va ularning asosiy motivlaridan biri bezorilik hisoblanadi. Bu belgilarning mavjudligi jinoyatni og'irlashtiruvchi holat hisoblanib, jazoni kuchaytiradi. Bu yerda psixologik omil ham katta ahamiyatga ega. O'smirlar yolg'iz jinoyat qilishdan qo'rqadi, chunki ushlanish qo'rquvi, guruhda ular o'z tajribasini ularga o'rgatib, jinoyat an'analarini saqlab qolishni maqsad qilgan. Ilgari sudlangan shaxslarning ta'siri voyaga yetmaganlar orasida tashkil etilgan jinoyatchilikning shakllanishida muhim rol o'ynaydi [5:72].

Shunday qilib, voyaga yetmaganlar tomonidan jinoyatlarning sodir etilish sabablari va sharoitlari butunlay turlicha bo'lishi mumkin. Bular ko'plab obyektiv va subyektiv omillarning yig'indisidan tashkil topadi, ular voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilayotgan jinoyatlar sonining ko'payishiga yoki kamayishiga ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, erta bosqichlarda buzilgan xulq-atvorni namoyon qilayotgan o'smirlarga alohida e'tibor qaratish zarur, chunki keyinchalik bu ularning axloqiy buzilishiga olib keladi va ularning xulqini tuzatish imkoniyati qolmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Павлов А. С., Грищенко Н. Н., Чумак А. Г., Петров В. А., Макарец В. В. Социально-психологические причины подростковой преступности // *Pedagogics, psychology, medical-biological problems of physical training and sports*. 2008. №11.
2. Дубинин Н. П. Наследование биологического и социального. *Коммунист*, 1980, №11. – С. 64,68.
3. Russell P. L., Nurius P. S., Herting J. R., Walsh E., Thompson E. A. Violent Victimization and Perpetration: Joint and Distinctive Implications for Adolescent Development // *Victims & Offenders*. 2010. Vol. 5, no. 4. P. 329–353.
4. Ережипалиев Д. И. Преступность несовершеннолетних на современном этапе развития российского общества // *Всероссийский криминологический журнал*. 2017. Т. 11, № 1. С. 98–108.
5. Медведев С. С., Зайцева В. А. Причины совершения несовершеннолетними преступлений // *Тенденции развития науки и образования*. 2021. № 75-3. С. 71–73.
6. Jumanazarov, Z. (2025). The role of childhood cultural experiences in spiritual security issues. *International Journal of Artificial Intelligence*, 1(3), 657-662.



7. Eldorovich, J. Z. (2025). ANALYZING THE ADVANTAGES OF TRADITIONAL VISUAL ARTS EDUCATION: A FOCUS ON THE CRITICAL ROLE OF PRACTICAL LEARNING. *SHOKH LIBRARY*, 1(11).
8. Eldor o'g'li, J. Z., & Dilshod o'g'li, X. D. (2025). MADANIY MUHITDA RAQAMLI KONVERGENTSIYA. *SHOKH LIBRARY*, 1(11).
9. Eldor o'g'li, J. Z., & Sayfulla o'g'li, S. A. (2025). THE INFLUENCE OF MUSIC ON THE HUMAN MIND. *Mahalliy va xalqaro konferensiyalar platformasi*, (1), 181-185.
10. Eldor o'g'li, Z. J. (2025). THE INTEGRATIVE ROLE OF CULTURAL INTELLIGENCE IN THE PROCESS OF TRAINING SPECIALISTS IN THE SOCIAL SPHERE. *Mahalliy va xalqaro konferensiyalar platformasi*, (1), 165-175.